

## MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TISHNING AHAMIYATI

Axmadjonova Durdona

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi

Rahmonali Obidov, dotsent

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasи

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisob tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida transformatsiyalash va bu orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash hamda xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, MHXS talablari asosida moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzishning zaruriyati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 24- fevraldagi PQ-4611 qarori mamlakatimizda MHXSni rivojlantirish uchun asos bo'lganligi yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari(MHXS), moliyaviy natijalar, milliy hisob tizimi, transformatsiyalash, xorijiy investitsiyalar.

**Abstarct:** In this article, the need to transform the accounting system of the Republic of Uzbekistan on the basis of international standards of financial reporting and thereby enter the finance world with accurate and reliable information, the need to prepare a report on financial results based on the requirements of the International Financial Reporting Standards, as well as the President of the Republic of Uzbekistan's "Financial Decision PQ-4611 of February 24, 2020 " is cited as the main factor for the development of IFRS in our country

**Key words:** International standards of financial reporting (IFRS), financial results, national accounting standards, transformation and adaptation, foreign investments.

Jahonda globallashuv va integratsiya jarayonlarining tobora jadallahib borayotganligi - xalqaro miqyosda belgilangan me'yorlar va standartlarga o'tish hamda ulardan foydalanishga bo'lgan talablarning kuchaytirilishiga zarurat tug'dirmoqda. Barcha sohalarda faoliyat olib borayotgan aksiyadorlik jamiyatlari, transmilliy korporatsiyalar va yirik kompaniyalar hozirda moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga (MHXS) muvofiq tuzmoqda. Zero, hisob siyosatining xalqaro standartlarga asoslanganligi har qanday axborot foydaanuvchisiga, potensial investorga, tushunarli va qaror qabul qilish uchun kerakli ma'lumot taqdim etish imkonini yaratadi.

Xususan, bizning mamlakatimizda ham bu borada qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611 qarori yurtimizda hisob siyosatida yangi sahifa ochdi. Shuningdek, Moliya vazirligi tomonidan 2020-yil 12-oktabrda 92-sonli MHXS hujjatlarini davlat tiliga tarjima qilish va ularni ekspertizadan o'tkazishni tashkil qilish to'g'risida buyrug'iga binoan, 62 ta MHXS hujjatlari davlat tiliga tarjima qilindi. xalqaro integratsiyalashuv jarayonida MHXS lardan foydalanish - xorijiy mamlakatlar moliyaviy holatini tushungan


# PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-MAY, 2024

holda mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalg qilish imkonini beradi. Xususan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollarri, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalg etish choralarini belgilab qo'yilgan.

Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlari talablariga muvofiq buxgalteriya hisobotlari shaklini o'zgartirishning umumiyligi ma'nosi O'zbekiston Respublikasi qoidalariga muvofiq tuzilgan hisobotlar bilan ularni MHXSga muvofiq tuzilgan hisobotlar deb e'tirof etish imkonini beruvchi tuzatishlarni amalga oshirishdan iborat. Hozirgi vaqtida buxgalteriya hisobotlari shaklini o'zgartirishning nazariy asosi ishlab chiqilgan bo'lib, u shuni nazarda tutadiki, transformasiya amalda kompaniyalar guruhining konsolidatsiyalashtirilgan moliyaviy hisobotlarini tuzishdagi birinchi bosqich hisoblanadi:



Xalqaro standartlar qo'mitasi va ko'plab boshqa professional kompaniyalar transformasiya – xalqaro standartlar talablariga mos keladigan hisobotlarga ega bo'lishning eng yaxshi yo'li emas, deb ta'kidlashdan sira to'xtashmadi. U ko'plab kamchiliklarga ega, jumladan:

- xatolarning muqarrarligi;
- amalda hisobot davri hisob yuritish ma'lumotlarini to'liq qayta ko'rib chiqish zarurligi;
- cheklangan vaqtida katta hisob-kitoblarni amalga oshirish zarurligi.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, hisobotlar shaklini moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlari talablariga muvofiq o'zgartirish emas, balki shunchaki parallel ravishda xalqaro standartlar bo'yicha hisob yuritish lozim. Biroq, moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlari bo'yicha hisob yuritishga o'tayotgan har qanday kompaniya bir marta transformasiya tartibotini amalga oshirishga majbur bo'ladi (tashkil etilgan vaqtidan boshlab darhol xalqaro standartlar bo'yicha hisob yurita boshlagan xo'jalik yurituvchi subyektlar bundan mustasno).

Bugungi kunda, buxgalteriya hisobining xalqaro standarti sifatida ikkita etalon: Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari – MHXS (International Financial Reporting Standards –

# PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

**1-MAY,2024**

IFRS) hamda AQShning Buxgalteriya hisobining umumqabul qilingan qoidalari – BHUQ (Generally Accepted Accounting Principles – GAAP) tan olingan

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611 qarori - <https://lex.uz/docs/4746047?ONDATE=23.08.2021%2000>
2. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi. PF-60 28.01.2022.
3. Norbekov D.E., To'rayev A.N., Rahmonov Sh.Sh. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. T.:2019.
4. IFRS veb sahifasi - [ifrs.org](https://ifrs.org)
5. Problems of national accounting systems transformation under the auspice of IFRS and their impact on the accounting process cost. Author: Mikhail Viktor Rodchenkov. May 2022.